

O'ZBEK MAQOM IJROCHILIGIDA DOIRA USULLARINING O'RNI VA AHAMIYATI**Umid Malikov**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI,

"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: prof. **Rahmatilla Samadov**E-mail: malikovumidjon08@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.19914794>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek maqom san'atida doira cholg'usining tutgan o'rni, xususan doira ijrochiligi amaliyotidagi usullar hamda ularning maqom ijrochiligidagi ahamiyati borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: maqom, ustoz-shogird an'analari, doira, ritm usul.

O'zbek xalqining ko'p asrlik musiqiy merosida maqom san'ati alohida va yuksak o'rin egallaydi. Ushbu san'at tizimi Sharq mumtoz musiqasining nazariy va amaliy yutuqlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, unda ohang, lad, shakl va ritm bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Ayniqsa, Buxoro Shashmaqomi va Xorazm maqomlari o'zining mukammalligi, badiiy chuqurligi va ijrochilik an'analari bilan ajralib turadi. Maqom ijrosida usul tushunchasi markaziy ahamiyat kasb etadi. Usul nafaqat ritmik tayanch, balki asarning ichki dramatik rivojini belgilovchi omildir.

Usul — maqom asarining ritmik-o'lchov tizimi bo'lib, u zarblarning ketma-ketligi va ichki bo'linishlariga asoslanadi. Sharq musiqa an'alarida usul G'arb musiqasidagi oddiy takt tushunchasidan ancha keng bo'lib, u ijroning sur'atini, ohang harakatini, xonandaning nafas olishini, she'riy matnning vaznini belgilaydi.

Usul odatda doira cholg'usi orqali ifodalanadi. Doira zarblari ijrochilar uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi va asarning umumiy kayfiyatini belgilaydi.

Ma'lumki, maqom ijrochiligidagi eng zarur unsurlardan biri doira usullaridir. Doira usullari maqom kuy va ashulalarining xarakterli tomonlarini ochib berishda eng muhim va hal qiluvchi omillardan sanaladi. Maqomlar tarkibidagi ko'plab kuy va ashulalar variatsiya yo'li bilan ishlangan. Bunda esa doira usullari muhim rol o'ynaydi. Maqom san'atida doira cholg'usi ritmik asbob sifatida muhim rol o'ynaydi. Maqom ashulalari va musiqalarida doira ritmning barqarorligini ta'minlaydi. Bu asbobning yordamida musiqiy kompozitsiyaning umumiy ritmik tuzilishi shakllanadi, bu esa ijrochi va tinglovchi o'rtasida uyg'unlik yaratadi. Doira faqatgina ritmni ta'minlab qolmay, balki maqom musiqasida melodik rang-baranglikni ham keltirib chiqaradi. Doira ijrochilari uning tebranishini turlicha usullar bilan boshqarish orqali musiqaning hissiy va dramatik ta'sirini kuchaytiradilar. Ba'zan doira nafaqat ritmik, balki melodik ovozlarni chiqaradi, bu esa asbobning musiqiy ekspressiyasini oshiradi.

Maqomlar tarkibidagi qismlarni tushunish uchun ham avvalo ularning doira usullarini yaxshi o'rganib o'zlashtirish, ajrata olish hamda shu usul jo'rligida eshita olish lozimdir. Oddiy tuzilishga ega xalq kuylarida esa usul bilan kuylarni birgalikda tinglash maqomdagi kabi murakkab emas.

Maqom ijrochiligidagi usullar o'zining muqimligi, yakunlanganligi, muayyan ma'noga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Har bir usulning o'ziga xos xususiyati va badiiy obrazi bor. Usulning o'zida salobat, vazminlik va nufuz bor. Ularni mana shu xususiyatlar negizida turlash mumkin. Shuningdek, usullarni oddiy va murakkab turlarga ajratish ham Sharq xalqlari musiqa

amaliyotida mavjuddir. Bunda oddiy usullar tarkibiga – Tasnif, Tarje’, Gardun, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufor; murakkab usullarga – Talqin, Chapandoz, Nasr, Mo’g’ulcha, Savt, Samoi, Chambar, Oraz, Muhammas va Saqillarni kiritish mumkin. Shashmaqom tarkibidagi oddiy va murakkab usullar ham maqomlarning asosini tashkil etadi. Shu sababdan usullarni tushungan holda o’zlashtirish, ko’proq tinglash, ijro etish va muntazam tarzda mashq etish har bir maqom o’rganuvchisida ijobiy natijalarga olib keladi.

Manbalarda ko’rsatilishicha, dastavval usul insonning yurak urushidan olingan. Tomirni barmoq bilan ushlab ko’rilsa, uning go’yo “tan-tan”¹ ga o’xshash bir tekis urayotgani bilinadi. Olimlar buni “usuli zarbi qadim” (qadimiy zarb usuli) deb ataganlar.

O’tmishda maqomlarning doira usullari va uning turlari haqida musiqashunos alloma va olimlar o’zlarining musiqaga bag’ishlangan ilmiy risolalarida fikrlarini bayon qilganlar. Hususan: Abu Nasr Farobiyning “Kitabun fi – ihsa’il-iqo’” (“Musiqashunoslik – iqo’ tasnifi haqida kitob”), Ibn Sinoning “Kitabush-shifa” (“Shifo kitobi”), “Kitabun najat” (“Najot kitobi”) kabi asarlarining musiqaga doir qismi va “Risalatun fi-ilmil-musiqiy” (“Musiqiy ilmi haqida risola”), Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf al-Kotib al-Xorazmiyning “Mafotihul-ulum” (“Ilmlar kaliti”)ni musiqaga bag’ishlangan qismi, Safiuddin Abdulmo’min Urmaviyning “Risalat-ush-Sharafiyya” (“Sharafli risola”) va “Kitabul-advar” (“Musiqashunoslik va ritm doiralari kitobi”), Zaynulobidin bin Muhammad bin Mahmud al-Husayniyning “Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy” (“Musiqashunoslik ilmiy va amaliy qoidalari”)² Abdurauf Fitratning “O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kabi qator ilmiy risolalarda musiqadagi doira usullari haqida ma’lumotlar bayon etilgan va bu noyob risolalar sharq musiqashunoslik nazariyasi taraqqiyoti tarixida alohida o’rin tutadi. Bugungi kunda ham maqom ijrochiligi, xususan, cholg’u ijrochiligi o’rganishda ustozlar turli mahalliy uslublarga tayanib kelmoqdalar.

Har bir maqomda doira ijrochiligi, usullarning tutgan o’rni, urish texnikasi, dinamikasi va zarb uslublari, ijro koloriti o’ziga xosdir. Ya’ni doira ijrochiligi har bir hududning musiqashunoslik madaniyatiga xos tarzda ijroda namoyon bo’ladi. Masalan, ularni lokal lik xususiyatlari bo’yicha o’rganilsa Xorazm maktabida doira usullari o’tkir, ritmik jihatdan turf axil bo’lib, raqs va og’zaki ijrochilik bilan uyg’unlashadi. Buxoro maktabida chuqur falsafiy uslub bilan nafis va ohangdor ijrosi ila ajralib turadi, Farg’ona-Toshkent maktabida murakkab metrik tuzilmalarga e’tibor qaratilib, zarblar juda nozik va estetik darajada ijro etiladi. Surxondaryo-Qashqadaryo maktabida esa doiraning zarb qudrati yuqori bo’lib, u kuchli energiyasi bilan boshqalardan ajralib turadi. Har bir hududiy maktab o’zining uslubiy xususiyatlarini yaratgan va bu jihatlar ustoz-shogird an’anasi orqali asrlar davomida rivojlanib kelgan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, maqom ijrochiligida doira nafaqat ritmik asbob sifatida, balki ijrochi va tinglovchilar o’rtasidagi musiqiy aloqani o’rnatishda ham muhim rol o’ynaydi. Maqomda ifodalanadigan his-tuyg’ular doira yordamida kuchaytiriladi va bu musiqashunoslik dinamikasini va emotsional ta’sirini kuchaytiradi.

Doira usullari ko’pincha improvizatsiya elementlarini o’z ichiga oladi. Maqom ijrochilari doira usullarini ijodiy ravishda moslashtirishlari va o’z ijodiy fikrlarini namoyish etishlari mumkin. Bu, o’z navbatida, musiqashunoslik jonli va o’zgaruvchanligini ta’minlaydi. Ijrochi doira yordamida ritmik naqshlarni o’zgartirib, musiqashunoslik ifodalangan mazmunini kengaytirishi mumkin.

¹ Bu so’zlar hech qanday ma’noga ega emas. ular doira usullaridagi uzun-qisqa zarblarni ifodalaydi xolos. Bu so’zlar yoki nota belgilari vositasida o’tmishda doira usullari yozma va og’zaki tarzda tushuntirilgan.

² Is’hoq Rajabov “Maqomlar” Toshkent, 2005-yil, – B-11.

Shuningdek, doira usullari maqomning emotsional ta'sirini kuchaytiradi. Har bir usulni qo'llashda ma'lum bir his-tuyg'u yoki kayfiyat ifodalanadi. Misol uchun, "yengil" va "tez" ijro etiladigan doira usullari musiqaga baxtiyorlik yoki hayajon kiritadi, "sekin" tempdagi usullar esa xotirjamlik va huzur holatini aks ettiradi. Doira bu hissiyotlarni ko'rsatishda ritmik element sifatida juda samarali vosita bo'ladi.

Doira nafaqat maqom ijrochilari bilan, balki boshqa musiqa asboblari (masalan, tanbur, rubob, shamol asboblari) bilan ham uyg'un ishlaydi. Ularning ritmik va melodik tuzilmalari orasida o'zaro aloqalarni yaratish uchun doira usullari qo'llaniladi. Bu, musiqaning umumiy tuzilmasini boyitadi va bir xil maqom doirasida turli xil ifodalanuvchi qatlamlar yaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, o'zbek maqomlarining har biri o'ziga xos ritmik tuzilmalarga ega bo'lib, maqomlarda turli xil ritmik birliklar ishlatiladi. Doira usullari ushbu ritmik tizimlarni ifodalashda eng muhim rolni o'ynaydi. Har bir maqomning an'anaviy ritmik shaklini doira orqali to'g'ri bajarish musiqaning to'g'ri ifoda etilishiga yordam beradi. Doira usullari bu ritmik shakllarni to'liq tushunib ijro etish eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent-1993
2. Matyoqubov O. Maqomot.– Toshkent.: Musiqqa. 2004.
3. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent-2006
4. Samadov R. An'anaviy doira ijrochiligi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2004